

4/2023,  
iyul-  
avgust  
(№ 00066)



## **SOLIQ QARZDORLIGI PAYDO BO'LISHINING SABABLARI HAMDA UNI QISQARTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI**

**Hakimov Ulug'bek Furqat o'g'li**

*Toshkent moliya instituti mustaqil izlanuvchisi. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). [ulajaha12@gmail.com](mailto:ulajaha12@gmail.com)*

*<https://orcid.org/0009-0001-1902-1763>*

*DOI: [https://doi.org/10.55439/EIT/vol11\\_iss4/a38](https://doi.org/10.55439/EIT/vol11_iss4/a38)*

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada soliq qarzdorligi paydo bo'lishining asosiy sabablari tadqiq etilgan. Shuningdek, mamlakatda soliq qarzdorligi vujudga kelishi yuzasidan xorijiy iqtisodchi olimlarning fikr-mulohazalari o'rganilgan. Yuridik shaxslar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlarning soliqlar va yig'implarni belgilangan muddatida to'lash holatlari tahlil qilingan. Yuqorida qayd etilgan holatlardan kelib chiqib, mamlakatimizda soliq qarzdorligini qisqartirish, shu jumladan uni samarali undirish amaliyotini yanada takomillashtirish borasida takliflar shakllantirilgan.

**Kalit so'zlar:** Soliq organi, soliq to'lovchilar, yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar, soliq yuki, soliq madaniyati, soliqlar va yig'implar, soliq qarzdorligi, davlat, budget.

### **ПРИЧИНЫ ВОЗНИКНОВЕНИЯ НАЛОГОВОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТИ И ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ЕЕ СНИЖЕНИЯ**

**Хакимов Улугбек Фуқрат угли**

*Независимый исследователь Ташкентского финансового института. Доктор философии (PhD) по экономическим наукам.*

### **Аннотация**

В данной статье изучены основные причины возникновения налоговой задолженности. Также были изучены мнения зарубежных экономистов относительно возникновения налоговой задолженности в стране. Проанализированы случаи своевременной уплаты юридическими лицами и индивидуальными предпринимателями налогов и сборов. Изучены особенности взыскания налоговой задолженности в развитых странах. На основании вышеизложенных обстоятельств внесены предложения по сокращению налоговой задолженности в нашей стране, в том числе по дальнейшему совершенствованию практики ее эффективного взыскания.

**Ключевые слова:** Налоговый орган, налогоплательщики, юридические лица, индивидуальные предприниматели, налоговое бремя, налоговая культура, налоги и сборы, налоговая задолженность, государство, бюджет.

### **REASONS FOR TAX DEBT AND THE MAIN DIRECTIONS FOR ITS REDUCTION**

Khakimov Ulugbek

*Independent researcher of Tashkent Financial Institute. Doctor of philosophy (PhD) in economical sciences.*

## **Abstract**

This article examines the main causes of tax debt. The opinions of foreign economists regarding the occurrence of tax debt in the country were also studied. Cases of timely payment of taxes and fees by legal entities and individual entrepreneurs were analyzed. Specific features of tax debt recovery in developed countries have been studied. Based on the above-mentioned circumstances, proposals and recommendations have been formulated to reduce tax debt in our country, including improving the practice of its effective collection.

**Key words:** Tax authority, tax payers, legal entities, individual entrepreneurs, tax burden, tax culture, taxes and fees, tax debt, state, budget.

## **Kirish**

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar tadbirkorlikni rivojlantirish, mamlakatimizda qulay biznes va investitsiya muhitini yaratish barobarida soliq tizimini ham keng rivojlantirish va uni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan.

Globalashuv sharoitida turli mulkchilik shakllarining vujudga kelishi tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy faoliyatini erkinlashtiradi, ushbu holatda xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga davlatning aralashuvi qonun bilan ya‘ni soliqlar orqali amalga oshiriladi. Yuqori iqtisodiy o‘shish sur‘atlari har tomonlama chuqur va puxta o‘ylangan izchil soliq va pul-kredit siyosatini amalga oshirish orqali ta‘minlanadi. Ushbu siyosat, avvalambor, iqtisodiyotda soliq yukini kamaytirish, xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida uning rag‘batlantiruvchi rolini kuchaytirishga qaratiladi. Shuningdek, mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususi sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish maqsadida, 2026-yilga borib tadbirkorlik subyektlariga soliq yuklamasini yalpi ichki mahsulotning 27,5 foizidan 25 foizi darajasiga kamaytirish asosiy ustuvor yo‘nalish sifatida belgilab olindi. [1]

O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlarining asosiy manbasi soliqlar va yig‘imlar hisobidan shakllanadi. Soliqlar va yig‘imlar o‘z muddatida va to‘liq tushishi davlat tomonidan amalga oshiriladigan barcha chora-tadbirlarning ya‘ni budjet va maqsadli jamg‘armalarning xarajat qismini moliyalashtirishga xizmat qiladi. Shu munosabat bilan soliqlarning o‘rnatilgan muddatda va to‘liq hajmda kelib tushishini ta‘minlash vazifasi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Soliqlarni muddatida to‘lanishini ta‘minlash esa soliq qarzdorligini imkon qadar vujudga kelishini oldini olish hamda ularni samarali undirish bilan amalga oshiriladi.

## **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili**

Mamlakatda soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida soliqlar qarzdorligini vujudga kelish sabablari o‘rganishi hamda ularni qisqartirishning ayrim masalalari qator xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ilmiy ishlarida tadqiq qilingan.

Mazkur masala bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib borgan xorijiy iqtisodchi olim A. Podkolzinning fikriga ko‘ra, quyidagi omillar ta‘siri natijasida soliq qarzlari vujudga kelishi mumkin:

- ijtimoiy-siyosiy va tarixiy;

- tashkiliy-huquqiy;
- iqtisodiy.

Ijtimoiy, siyosiy hamda tarixiy – bunda, ayrim davlatlarning siyosiy faoliyatiga qarshilik va e'tirozlarni kelib chiqishi, soliq madaniyatining shakllanmaganligi va bundan tashqari, boshqa bir qancha ijtimoiy holatlar bilan izohlanishi mumkin.

Tashkiliy-huquqiy – mazkur holatda soliq ma'murchiligi takomillashmaganligi va soliqqa oid huquqiy bazaning to'liq shakllanmaganligi, soliq yukini yuqoriligi bilan izohlanadi.

Iqtisodiy – bu omil iqtisodiy o'zgarish bilan izohlanadi. Bu asosan 2 guruhga bo'linadi:

- birinchi guruh umumiy iqtisodiyotdagi tizimning beqarorligi, yetarli darajadagi pul massasining yo'qligi, inflyatsiya darajasining yuqoriligi, ishlab chiqarishning pasayishi yoki xarid qobiliyatining pasayishi;

- ikkinchi guruh o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan ishlab chiqarish va tovarlar oldi-sotdisiga bog'liq bo'lgan holatlar hamda faqat ayrim xo'jalik yurituvchi subyektlarga taalluqli bo'lgan texnik-ishlab chiqarish bilan bog'liq holatlar bilan izohlanadi. [2]

Rus tadqiqotchisi S.Proninning fikriga ko'ra, yuridik shaxslar, shu jumladan, yakka tartibdagi tadbirkorlar soliq qarzlarning paydo bo'lishini 3 guruhga bo'lib o'rganish lozim:

1. Iqtisodiy xarakterdagi sabablar o'z navbatida 3 ta guruhga ajratiladi:

- makroiqtisodiy sabablar jumlasiga mamlakatdagi iqtisodiyotni beqarorligi (inqiroz), mamlakat va uning ichidagi hududlarning daromad olish bo'yicha iqtisodiy sohalarini bir xilda rivojlanmasligi, aksariyat soliq to'lovchilarning ishlab chiqarishdagi rentabellik darajasini tushib ketishi natijasida soliq va to'lovlarni to'lay olmasligi, og'ir moliyaviy holatning yuzaga kelishi, umumiy to'lov intizomini qoniqarsiz darajada ekanligini keltirish mumkin;

- ichki (tarmoq) sohaviy sabablarga iqtisodiyotning yetakchi sohalarida yangi innovatsion siyosatni yuritilmasligini keltirish mumkin. Buning natijasida esa shu sohadagi ishlab chiqarish yangi jihozlar bilan modernizatsiya qilinmay qoladi va ishlab chiqarilayotgan tovar (ish va xizmatlar) bozorda o'z o'rnini hamda xaridorlarini yo'qotadi. Shu sababli, ushbu soha inqirozga yuz tutadi va soliq qarzdorligini kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

- mikroiqtisodiy sabablarga yuridik shaxslarni boshqarishda ichki rahbarlikni qoniqarsizligi, marketingni yaxshi o'zlashtirmaslik, hamkorlarni tanlay bilmaslik va moliya-xo'jalik faoliyati bo'yicha buxgalteriya hamda soliq hisobining past darajada yuritilishi, kuchsiz moliyaviy nazoratning o'rnatilganligini keltirish mumkin. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes subyektlarining iqtisodiyotdagi o'rnini yuqori bo'lib bormoqda. Shu bilan birga ular tomonidan foydani maksimallashtirish nuqtai nazaridan soliq to'lovlarni rejalashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Buning uchun ular mustaqil ravishda soliq bazasini turli yo'llar bilan kamaytirishni ko'zlamoqdalar. Albatta, bu masalada ma'lum haq evaziga "soliq maslahati" yoki "auditor" tashkilotlari xizmatlaridan foydalanuvchi, yirik aylanma mablag'iga ega subyektlar ham topiladi. Aksariyat hollarda esa kichik biznes subyektlari mustaqil ravishda bu ishlarni amalga oshirib, natijada qo'pol xatoliklarga yo'l qo'yadi. Yo'l qo'yilgan xatoliklar soliq tekshiruvlarida aniqlanib, ularga nisbatan qo'shimcha soliqlar hisoblanib, jarimalar qo'llaniladi.

2. Tashkiliy-huquqiy xarakterdagi sabablarni ikki turga bo'lib o'rganiladi, ya'ni:

- soliqqa oid huquqiy bazaning to'liq yetarli darajada shakllanmaganligi oqibatida soliq qarzdorligini majburiy undirish bo'yicha sud organlariga kiritiladigan arizalarning

ko'rmay qoldirilishi yoki soliq qonunchiligidagi boshqa kamchiliklar sababli soliq qarzdorligini undirish jarayonini to'xtatib qo'yilishi mumkin;

- soliq qarzini undirish tuzilmasini mukammallashtirmaganligini quyidagi sifatlar bilan izohlash mumkin deb o'ylaymiz. Soliq qarzini undirish tuzilmasi:

a) tashkilotlaridagi xodimlar sonining kamligi;

b) tashkilotlarining quyi tuzilmalari, hududlardagi bo'lim va tashkilotlaridagi xodimlarning bilim va kasb mahorati hamda mehnat unumdorligini pastligi, mehnat intizomiga to'liq rioya etilmasligi;

v) tashkilotlarining o'zaro hal etilmagan muammolari mavjudligi;

g) texnik va texnologik jihatdan yaxshi jihozlanmaganligi.

3. Ma'naviy-ruhiy xarakterdagi sabablar esa quyidagi 2 turga bo'lib o'rganiladi:

- soliq madaniyatining pastligi (yo'qligi). Jamiyatsdagi ayrim yuridik shaxslarning rahbar va mansabdor shaxslarini fikricha, “soliqlarni to'liq hamda o'z vaqtida to'lash” va “muvaffaqiyatli biznes” tushunchalari bir-biriga teskari hisoblanadi. Aynan shu turdagi soliq to'lovchilar soliq organi tomonidan tekshirilib, ularga nisbatan qattiq jazo choralari ko'riladi va jarimalar qo'llaniladi;

- soliq qarzini undirish muqarrarligini tushunib yetmaslik. O'tkazilgan tekshiruvlar natijasida qo'llanilgan jarima va qo'shimcha hisoblangan soliqlar yoki bo'lmasa tekshiruv gacha bo'lgan muddatda yashirilgan, to'lashdan qochilgan, muddatida to'lanmagan soliqlar davlat budjetiga bir kun kelib undirib olinadi. Yuridik shaxslarga bankrotlik alomatlari qo'llanilgan taqdirda ham subsidiar javobgarlik choralari mavjudligini unutmaslik lozim bo'ladi. [3]

Xorijlik olim Michael Brostek esa o'z tadqiqotida soliq qarzini undirilishining samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagi omillarini ko'rsatib o'tadi, xususan:

- mamlakatda soliq qarzi summalarining paydo bo'lishiga yo'l qo'yishni oldini olishda soliq yukini pasaytirish kelajakda soliq qarzdorliklari kamayishiga olib keladi;

- muddatida to'lanmagan soliqlar va yig'implarni undirish strategiyasi faqat belgilangan davr mobaynida o'z ijobiy natijasini beradi. [4]

Mahalliy iqtisodchi olimlarimiz A. Tangriqulov va Sh. Toshmatovlar fikricha, soliq qarzlarning nazariy jihatdan vujudga kelish sabablari quyidagilardan iborat:

- o'zaro moliya-xo'jalik munosabatlarida bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan to'lov intizomiga rioya qilmaslik va buning oqibatida debitorlik, kreditorlik qarzlarning oshib ketishi;

- moliya-xo'jalik faoliyatini rejalashtirish va bu faoliyatni noto'g'ri boshqarish;

- xo'jalik yurituvchi subyektning mahsulotiga (bajarilgan ish va xizmatlarga) iste'mol talabining keskin o'zgarishi;

- ishlab chiqarilgan mahsulotning (bajarilgan ish va xizmatlarga) sifati buyurtmachining yoki bozor talabiga javob bermasligi. [5]

### **Tadqiqot metodologiyasi**


Tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy mushohada, statistik kuzatish, statistik grafiklardan foydalanilgan holda qiyosiy tahlil, ma'lumotlarni guruhlash, abstrakt-mantiqiy fikrlash, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Ushbu tadqiqot usullari soliq ma'murchiligini, xususan soliq qarzdorligini qisqartirish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha xulosa va takliflarni shakllantirishga xizmat qiladi.

### **Tahlil va natijalar**

Yuqorida ko‘rsatilgan xorijiy va mahalliy olimlarning fikrlariga qo‘shilgan holda yana shuni ta‘kidlab o‘tishimiz lozimki, soliq qarzdorligini paydo bo‘lishida har bir davlat va jamiyatning o‘z tarixi, kelib chiqishi, strategik joylashgan o‘rni, mentaliteti, demografik tarkibi ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Shuningdek, davlatdagi siyosiy beqarorliklar uning iqtisodiyotini izdan chiqarishi turgan gap. Qolaversa iqtisodiyotning sikllarida “iqtisodiy tushish” yoki inqiroz davrida ham soliq qarzdorligini o‘rish ehtimoli katta bo‘ladi. Makro va mikro darajada bozordagi talab va taklifdagi o‘zgarishlar ham soliq qarzdorligini o‘rishi yoki kamayishiga keskin ta‘sir qiladi. Bu esa keyingi ketma-ketlikda valuta kursidagi o‘zgarishlar va to‘lov tizimidagi yuzaga keladigan kamchiliklar bilan ham baholanadi.

Bundan tashqari, tadbirkorlik faoliyatini yuritishni yaxshi bilmaslik va korporativ soliq menejmentini tushunmaslik, tadbirkorlardagi uquqsizlik va bilimsizlik tufayli ham soliq qarzdorligi paydo bo‘lishi mumkin, albatta.

Muallif fikricha, mamlakatimizda soliq qarzi vujudga kelishi quyidagi 3 ta asosiy omilga bog‘liqdir:



**1-rasm. Soliq qarzi vujudga kelishining asosiy sabablari. [6]**


Soliq madaniyati – bu soliq munosabatlari sohasida soliq to‘lovchilar va soliq organlarining o‘zini tutishining belgilangan normalari, qoidalari va tamoyillari majmui sifatida belgilanishi mumkin. Soliq to‘lovchilarning soliq madaniyati esa ularning davlat va jamiyat uchun soliq to‘lash muhimligini anglashidan shakllanadi.

Bundan ko‘rinadiki, mamlakatda soliq madaniyatini qay darajada rivojlanganligi soliq to‘lovchilarning soliqlar va yig‘imlarni soliq qonunchiligiga asosan, belgilangan muddatda hamda to‘liq hajmda to‘lashi bilan ifodalaniladi deb aytishimiz mumkin. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, mamlakatimizda yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning soliqlarni belgilangan muddatda to‘lashi tahlilini quyidagi 2-rasm ma‘lumotlari orqali ko‘rishimiz mumkin.

Pastdagi 2-rasm ma‘lumotlari shuni ko‘rsatadiki, 2017-2021-yillar davomida davlat budjetiga soliq tushumlarining 57 foizi majburiy undirilgan, 17 foizi undirilmay qolgan hamda 26 foizi ixtiyoriy muddatda to‘lab berilgan. Shunga ko‘ra, mamlakatimizda soliq to‘lovchilarning soliq madaniyatini oshirish hali-hanuz dolzarb masalalardan biri ekanligidan dalolat beradi. Muallif fikricha, soliq to‘lovchida soliq madaniyati shakllanishida 2 ta muhim omil ta‘sir ko‘rsatadi:

- soliqqa tortish asoslaridan yetarli darajada ma‘lumotga ega bo‘lish;
- soliq to‘lashni majburiyat deb qabul qilish.

Agar soliq to'lovchi o'z faoliyati uchun zarur bo'lgan soliq qonunchiligini yetarli darajada bilsa, u o'z soliq majburiyatlarini oqilona bajaradi. Ammo, soliq to'lovchi soliq



**2-rasm. 2017-2021-yillarda yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkolar tomonidan soliqlar va yig'implarning muddatida to'lanishi tahlili. [7]**

majburiyatlarini bajarishni davlat oldidagi qarzi deb bilsa, bu ham soliq to'lovchining soliq madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda, ko'pgina soliq to'lovchilar soliq, soliq tizimi va soliqqa tortish asoslari bo'yicha yetarli bilimga ega bo'lmaganliklari soliq qarzlari vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda. Iqtisodiy munosabatlarning har qanday jarayonlari sezilarli darajada savodxonlik va iqtisodiy madaniyatni, xususan, jamiyatning soliq madaniyatini egallashini talab qiladi. Ammo bu juda murakkab va ko'p bosqichli jarayon bo'lib, uni bir vaqtning o'zida amalga oshirib bo'lmaydi. Uni amalga oshirishga turli omillarni hisobga olgan holda rejali yondashish kerak. Soliq tizimini takomillashtirishning asosiy ustuvor yo'nalishi jamiyatning soliq madaniyatini oshirish, jumladan, yosh avlod, boshqacha aytganda, madaniyatning shakllanishi insonga eng boshidanoq xos bo'lishi kerak, chunki butun jamiyatga soliq madaniyatini birdaniga shakllantirib bo'lmaydi.

Soliq yuki odatda, mamlakatda soliq to'lovchilar tomonidan ma'lum bir davr oralig'ida to'lagan soliqlar va yig'implar summasining o'sha davrda realizatsiya qilingan tovarlar (bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmatlar) summasiga bo'lish orqali aniqlanadi. Soliq yuki qancha yuqori bo'lsa, mamlakatda soliq qarzlarning ko'payishiga va yashirin iqtisodiyotning ulushi ortishiga, shuningdek, xorijiy investorlarning kirib kelishida salbiy ta'sir ko'rsatishiga sabab bo'ladi va aksincha agar soliq yuki juda past bo'lsa, budjetga tushum kamayib ketishi mumkin. Shuning uchun soliq yukini optimal «nuqtada» ushlab turish har bir davlatning siyosiy-iqtisodiy muammolaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda, mamlakatimizda soliq yuki 2022-yilda taxminan 27,5-28 foizni tashkil etganligini ommaviy axborot vositalaridan yoki boshqa rasmiy manbalardan ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, biz tomonimizdan olib borilgan tadqiqot ishlari davomida, 1000 dan ortiq yuridik shaxs tanlanma asosida tanlab olinib, tahlil qilindi va o'rtacha soliq yuki 46,7 foizni tashkil etishi, shu jumladan, jismoniy shaxslarga to'g'ri keladigan o'rtacha soliq yuki 26,4 foiz va YTTlarda 8,7 foizga to'g'ri kelishi aniqlandi. Albatta yuridik va jismoniy shaxslarga to'g'ri keladigan soliq yukini ijobiy deb bo'lmaydi hamda bu mamlakatda soliq qarzdorligini oshishiga ta'sir ko'rsatadi.

Shu o‘rinda, tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususi sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish maqsadida, 2026-yilga borib tadbirkorlik subyektlariga soliq yuklamasini yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 25 foizgacha kamaytirish vazifasi davlat soliq xizmati organlariga yuklatilganligini ta’kidlab o‘tishimiz lozim.

Soliq to‘lashdan qochadigan yoki soliq to‘lashdan qasddan bo‘yin tovlaydigan tadbirkorlik subyektlari deyarli har bir davlatda amaliyotda uchrab turadi (Bugungi kunda Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo‘mitasi tomonidan 2815 ta shubhali korxonalar aniqlangan). [8] Har xil g‘ayriqonuniy yo‘llar orqali soliq to‘lashdan bo‘yin tovlaydigan soliq to‘lovchilar sonining oshishi mamlakatda soliq qarzdorligi ulushining oshishiga hamda davlat budgetga tushadigan tushumning keskin kamayishiga olib kelishi mumkin.

### **Xulosa**

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, mustaqillik yillaridan boshlab hukumatimiz tomonidan soliq yukini pasaytirilishi, soliq stavkalarining optimallashtirilishi, tadbirkorlik subyektlariga o‘zlarining faoliyatlarini olib borishda qator yengillik va keng imkoniyat yaratilib kelinmoqda. Ammo, shunga qaramay soliq qarzdorligi mavjud bo‘lgan soliq to‘lovchilarimiz talaygina. Muallif fikricha, soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha qarzdorlikni kamaytirish ularni muddatida va to‘liq undirish samaradorligini oshirishda rivojlangan mamlakatlar tajribalari asosida quyidagi takliflar o‘z samarasini beradi:

1. Mamlakatimizda soliq madaniyatini yanada takomillashtirish maqsadida, umumta’lim, o‘rta maxsus hamda oliy ta’lim muassasalarida (ixtisoslik yo‘nalishlaridan qat’i nazar) soliq fanlarini joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Sababi, har bir inson ta’lim muassasalarini tamomlaganidan so‘ng albatta qayerdadir ishlaydi, daromad oladi va buni xohlaydimi yo‘qmi soliq to‘lovchiga aylanadi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, har bir shaxs qanaqa soliq to‘lashligini, qancha soliq to‘lashligini va qachon soliq to‘lashligini, shuningdek agar soliqlarni belgilangan muddatida to‘lamasa yoki to‘liq to‘lamasa qanday oqibatlariga olib kelishini aniq bilishi shart. Misol uchun Rossiya davlatida Soliq xizmati vazirligi va Ta’lim vazirligi tashabbuslari bilan 2002-yildan boshlab maktablarda «Soliq savodxonligi» fani amaliyotga joriy etilgan. Ularning fikricha, fuqarolar birinchi soliq haqidagi bilimlarini maktablarda olishi kerak. [9]

Shu munosabat bilan, respublikamizda soliq madaniyatini oshirishni yoshlarni tarbiyalashdan boshlash maqsadga muvofiq. Mazkur taklif amaliyotga joriy etilsa, kelajakda soliq to‘lovchilarning budget oldida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan soliq qarzdorligini kamaytirishda o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi, deb hisoblaymiz. Shuningdek, o‘rta va katta yosh vakillarida soliq madaniyatini rivojlantirishda diniy tomondan yondashish, xususan masjidlarda soliqlarning o‘z vaqtida va to‘liq to‘lashning davlat rivojlanishidagi, shu jumladan, aholining nochor qatlamini ijtimoiy va moliyaviy qo‘llab-quvvatlanishidagi roli to‘g‘risida ma’ruzalar o‘qilishi ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

2. Italiya davlati tajribasi o‘rganilganida, ularda soliqlarni kechiktirish holatiga keskin choralar ko‘rilishi aniqlandi. Xususan, soliq deklaratsiyasini taqdim etmaslik, soliq qarzi summasining 120 foizdan 240 foizgacha bo‘lgan miqdorda jarima solinishiga sabab bo‘lishi mumkin. Agar deklaratsiyada soliq majburiyati bo‘lmasa jarimaning eng kam miqdori (250 yevrodan 1 000 yevrogacha) qo‘llaniladi. Shuningdek, soliqlarni o‘z muddatida

to‘lamaslik, soliq qarzi summasining 30 foiz miqdorida jarima hisoblanadi. Ammo, soliq qarzini kechiktirish 15 kungacha cho‘zilsa 1 foiz miqdorda, 15-90 kungacha to‘lanmasa 15 foiz miqdorda jarima solinadi. Xuddi shunday soliq qarzini kechiktirganlik uchun qo‘llaniladigan jarimalarga mutanosib ravishda (0,1%; 1,5%; 1,67% va 3,75%gacha) penyalarning stavkalari ham oshib boradi. [10] Shu o‘rinda mamlakatimizda soliq qarzini muddatida to‘lamaganlik uchun soliq qarziga nisbatan hisoblanadigan penya stavkasi 0,046 foizni tashkil etishini aytib o‘tishimiz lozim. [11]

Mamlakatimizda ushbu amaliyotni joriy etilishi, aynan soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlayotgan yoki ularni to‘lash muddatini qasddan kechiktirib to‘laydigan soliq to‘lovchilarning moliyaviy holatiga sezilarli ta‘sir qiladi hamda soliqlarni belgilangan muddatda va to‘liq hajmda to‘lashga undaydi degan xulosaga kelish mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

2. Подколзин А.Г. Журнал «Российское предпринимательство» №2 (74) 2016 г.

3. Пронин С.Б., Пронин М.С. Взыскание задолженностей по налогам с организаций. // Тематический спецвыпуск журнала «Горячая линия бухгалтера». – 2006 г.

4. Michael Brostek. Tax debt collection IRS needs to better manage the collection notices sent to individuals. // United States government Accountability office.-2009. P-27.

5. Tangriqulov A, Xomma A, Toshmatov Sh, Norqo‘ziev I, Roziqov N. Soliq qarzi va uni undirish. O‘quv qo‘llanmasi. – T.: “Yangi asr avlodi” nashriyoti – 2010.(51-b).

6. U.F. Hakimov. Soliq qarzini undirish amaliyoti va uni takomillashtirish yo‘nalishlari. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Avtoreferati 2023-yil.

7. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo‘mitasi ma‘lumotlari.

8. <https://www.soliq.uz/activities/tax-risk-analysis>

9. <https://www.buhgalteria.ru/news/nalogi-novyy-predmet-v-rossiyskikh-shkolakh.html>

10. <https://taxing.it/technical-resources-2/>

11. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, 110-modda. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020-yil. – 640 bet.